XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-iyun VI-63-86-3-52-K/24 Paxtakor tumani

Paxtakor tumanining 2024-yil mahalliy budjetining daromad va xarajatlar qismiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, Budjet kodeksining 27 va 147-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli tavsiya xati, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 15-maydagi VI-53-111-3-0-K/24-sonli qarori hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 28-maydagi 01-20-228/08-01-32/126-sonli tavsiya xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining daromadlar yoyilmasida rejalashtirilgan “Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar miqdori 40 foizgacha oshirish hisobiga moliyalashtirish belgilansin.

“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining saqlash xarajatlarini shakllantirish maqsadida tuman mahalliy budjetining daromad va xarajat reja ko‘rsatkichlari 1 va 2-ilovalarga mos ravishda oshirilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “**Paxtakor tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida**”gi VI-57-197-3-52-

K/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlar va xarajatlar qismi ilovalarga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Meliboev)ga mahalliy budjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi (A.Avazov)ga ajratilayotgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  ASHUROV ASILBEK RAXMONOVICH

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 29-iyundagi
VI-63-86-3-52-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan daromadlar reja ko‘rsatkichlariga “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun” solig‘ining oshirilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Tuman nomi	Bo‘lim	Paragraf	Даromad kodi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	Paxtakor	3145	204	3145204	1 952 058.0

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 29-iyundagi
VI-63-86-3-52-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan xarajatlari reja ko‘rsatkichlariga “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining tashkil yetilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Hudud nomi	Byudet mablag‘i taqsimlovchi nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Kiritilgan o‘zgartirish	
						Kamaytirildi	Ko‘paytirildi
1	Paxtakor tumani	Tuman Suv etkazib berish xizmati davlat muassasasi	7042	480	018	0	1 068 835.0